

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.FIL.27.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

MAMARAIMOVA O‘G‘ILOY TAJIMURADOVNA

**MEDIANING LISONIY MANZARASIDA MENTALLIK: AKSIOLOGIK
TADQIQ (ELEKTRON GAZETALAR MISOLIDA)**

10.00.11-Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent–2025

Qo‘lyozma huquqida
UDK: 811.512.133’32’33:070.48

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi

Content of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on
Philological Sciences

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам

Mamaraimova O‘g‘iloy Tajimuradovna

Medianing lisoniy manzarasida mentallik: aksiologik tadqiq (elektron gazetalar misolida)..... 3

Mamaraimova Ugiloy Tajimuradovna

Mentality In the Linguistic Form of Media: an Axiological Research (In the Example of Electronic Newspapers)27

Мамараимова Ўғилой Тажимурадовна

Ментальность в языковой картине мира: аксиологическое исследование (на примере электронных газет).....51

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

List of published works

Список опубликованных работ.....56

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.FIL.27.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

MAMARAIMOVA O‘G‘ILOY TAJIMURADOVNA

**MEDIANING LISONIY MANZARASIDA MENTALLIK: AKSIOLOGIK
TADQIQ (ELEKTRON GAZETALAR MISOLIDA)**

10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy Attestatsiya Komissiyasida № V2022.4. PhD/Fil3036 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Termiz davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume), Ilmiy kengashning veb sahifasida (www.uzswlu.uz) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalining (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Teshabayeva Dilduza Muminovna
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Raximov G'anisher Xudoyqulovich
filologiya fanlari doktori, professor

Nasrullayeva Nafisa Zafarovna
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Qarshi davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi DSc. 03/30.12.2019. Fil.27.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi Bir martalik Ilmiy kengashning ____ -yil "____" _____ soat ____dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo'li ko'chasi, 21A-uy. Tel: (99871)230-12-91; faks: (99871) 230-12-92, e-mail. uzswlu_info@mail.ru).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik xalqa yo'li ko'chasi, 21A-uy. Tel.: (99871)230-12-91, faks: (99871) 230-12-92.

Dissertatsiya avtoreferati ____ yil "____" _____ kuni tarqatildi.

(2025 yil "____" _____dagi № ____ – raqamli reyestr bayonnomasi)

I.M.Tuxtasinov

Ilmiy darajalar beruvchi Bir martalik
Ilmiy kengash raisi, p.f.d., professor

X.B.Samigova

Ilmiy darajalar beruvchi Bir martalik
Ilmiy kengash kotibi, f.f.d., professor

J.A.Yakubov

Ilmiy darajalar beruvchi Bir martalik
Ilmiy kengash qoshidagi Bir martalik
Ilmiy seminar raisi, f.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida mentalitetning lingvistik kategoriya sifatidagi maqomini aniqlash masalasi dunyoni kategoriyalashtirish muammosi bilan bevosita bog'liq bo'lib, bu muammoning tadqiqi hozirda tishunoslikning muhim va istiqbolli masalalaridan biri hisoblanadi. Tilning mental tasavvurlari va xalqning madaniyati bilan o'zaro bog'lanishda bo'lishi jihatidan ko'rib chiqish muammosi tilshunos olimlar tadqiqotlari markazidan joy olmoqda. Media tilini va mediamatnlarni mentalilik asosida tadqiqi – ijtimoiy e'tiqod, mafkuraviy munosabat va hodisa va jarayonlarni ongli ravishda jamoaviy idrok etishda muhim rol o'ynaydi. Elektron gazeta matnlarida mentallik kategoriyasini tadqiqi tilshunoslik bilan bir qatorda falsafa, ijtimoiy va siyosiy fanlar, hamda jurnalistika sohalari uchun ham muhim bo'lib, yangi yondashuvlarni talab etmoqda.

Dunyo mediamakonida kechayotgan globallashuv va raqamlashuv jarayonlari zamonaviy texnologiyalar asosida axborot izlash, olish va tarqatishda keng imkoniyatlar yaratdi. Ommaviy axborot vositalarining zamonaviy turlaridan bo'lgan elektron gazeta tili lingvistik tahlil obyektiga aylanmoqda. Hozirda elektron gazeta matnining turli aspektlarga oid tadqiqotlar Britaniya, AQSH, Germaniya, Ispaniya, Rossiya, Qozog'iston, Belorussiya va boshqa xorijiy davlatlar ilmiy maktablarida olib borilmoqda. Elektron gazetalar – an'anaviy bosma nashrlardan interaktivlik, multimedia, gipermatnlilik, dinamizm kabi bir qator parametrlari bilan farq qiluvchi maxsus turdagi media matni hisoblanadi. Elektron gazeta tilini o'rganish uning faoliyati, tuzilishi, uslubi, janrlarining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi. Elektron gazeta tili shakllanishida mentalitetning o'rni jamiyatning madaniy va ijtimoiy qadriyatlarining aksi sifatida qaraladi. Jumladan, axborotga to'yingan bugungi dunyoda ommaviy axborot vositalari tilining mentallik asosida tadqiq qilish demokratik tamoyilga asoslangan ijtimoiy muhitni shakllantirishga xizmat qiladi. Tilning mental tabiati hamda milliy ongda aks etishi kabi masalalar zamonaviy o'zbek tilshunosligining dolzarb tadqiqot yo'nalishlaridan biriga aylangan. Chunonchi, elektron gazetalar matnining shakllanishida mentallik kategoriyasining o'ziga xos jihatlarini tadqiq etish dolzarb va zaruriy muammolardan biri ekanligidan dalolat beradi.

O'zbek tilshunosligining medialingvistika doirasida mediamatnlarni tabiatini yaqqol yoritib beruvchi qator tadqiqotlar yaratilmoqda. Xususan, o'zbek mediamakonida mental til birliklarini lingvistik xususiyatlarini tahlil qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mediamatnni mental xususiyatlarini o'rganish hamda elektron gazetalar orqali ijtimoiy-siyosiy voqea-hodisalarni turli auditoriya qatlamiga tezkorlik bilan taqdim etish usullarini ilg'or xorijiy tajribalarga tayangan holda tadqiq qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, "Ilm-fan, ma'rifat sohasi vakillari har tomonlama qo'llab-quvvatlanayotgani, intellektual boylikning qadr topayotgani xalqimizning tarixi,

tiynati, mentaliteti, asriy qadriyatlari, orzu-umidlari bilan bevosita bog'liq"¹. Darhaqiqat, media olamida mediamatnni shakllanishida millatimizga xos bo'lgan umumiy e'tiqod, qadriyatlar, madaniy xususiyatlari, millat va xalq mentaliteti muhim rol o'ynaydi va axborot orqali qadriyatlar tizimini idrok etish usullarini belgilaydi. Ayniqsa, o'zbek tilining mental xususiyatlarini boshqa tillar, xususan, ingliz tili bilan chog'ishtirma aspektda o'rganish istiqbollari kengaymoqda.

Hozirda o'zbek jamiyatining turli sohalarida muayyan maqsadga yo'naltirilgan islohotlar olib borilishi natijasida mentalitet va milliy tilimizni tadqiq etuvchi yangi paradigmalarni qo'llash bilan bog'liq harakatlar yuzaga keldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2020-yil 29-oktabrdagi "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6097-son Farmonlari; Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-avgustdagi 610-son, "Ta'lim muassasalarida chet tillarini o'qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2020-yil 11-martdagi 139-son", "O'zbek tili va adabiyoti bo'yicha fundamental va amaliy tadqiqotlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar stretegiyasi to'g'risida"gi², 2019-yil 2-fevraldagi PF-5653-son "Axborot sohasi va ommaviy kommunikatsiyalarni yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"³gi farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"⁴gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish" ustuvor yo'nalishi doirasida amalga oshirilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mamlakatimiz tilshunosligida media tilini tadqiqiga bag'ishlangan ko'plab ilmiy tadqiqotlar bajarilgan bo'lib, bular qatoriga A.Abdusaidov, D.M.Teshabayeva, S.D.Sa'dullayev, I.Y.Toshaliyev, M.Israil, S.Shomaqsudova, Y.Odilov, A.X.Mirzajonov, M.Artikova,

¹ Президент Шавкат Мирзиёев Ўзбекистон Республикаси мустақиллигининг йигирма тўққиз йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи. <http://insonhuquqlari.uz/uz/news/ozbekiston-yangi-renessans-markaziga-aylanmoqda>.

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг «2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стретегияси тўғрисида»ги ПФ-4947-сон Фармони. www.uza.uz. 08.02.2017.

³ Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ахборот соҳаси ва оммавий коммуникацияларни янада ривожлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги ПФ-5653-сон Фармони. www.uza.uz. 02.02.2019.

⁴ Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Олий таълим тизimini янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-2909-сон Қарори. www.uza.uz. 20.04.2017.

Sh.Djabbarova, S.Atkamova, Sh.B. Jabborova, N.Yaxyayeva⁵ va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar shular jumlasidandir.

Jahon tilshunosligida media tiliga bag'ishlangan bir qator salmoqli tadqiqotlar amalga oshirilgan. Bular qatoriga X.Xamilton, R.Fauler, N.Farklau, D.Mattenson, M.Montgomeri, D.Shifrin, D.Tannen, T.G.Dobrosklonskaya, D.N.Shmelev, S.I.Bernshteyn, V.G.Kostomarov, A.N.Vasileva, Y.V.Rojdestvenskiy, G.Y.Solganik, S.I.Treskova, I.P.Lisakova, B.V.Krivenkolar salmoqli hissa qo'shganlar⁶.

Media internet tili bo'yicha R.A.Vafeyev, V.S.Daxil, Y.V.Kakorina, M.G.Shilina, G.A.Maxinin, T.N.Kolokolseva, O.V.Lutovinova, Y.V.Prasolova, D.M.Teshabayeva, M.Nuritdinova⁷ kabi olimlarning ishini keltirish mumkin.

⁵ Абдусaidов А. Газета жанрларининг тил хусусиятлари. Филол.фан.д-ри.дисс. – Самарқанд, 2005; Бакиева Г.Х., Тешабаева Д.М. Оммавий ахборот тили. – Тошкент: O'zkitobsavdo nashriyot, 2019; Бакиева Г.Х., Тешабаева Д.М. Медиаконда матн. – Тошкент, 2019; Тешабаева Д.М., Бакиева Г.Х., Исраил М.И., Тошмухамедова Л.И., Нуриддинова М.Ч. Журналистика. III жилд. Медиалингвистика ва тахрир. – Тошкент: Ozbekiston, 2019; Тешабаева Д.М. Оммавий ахборот воситалари тилининг нутқ маданияти аспектида тадқиқи (Ўзбекистон Республикаси ОАВ мисолида): Филол.фан.д-ри. дисс. – Тошкент, 2012; Худойберганова Д.С. Ўзбек тилидаги бадий матнларнинг антропоцентриқ таркиби: Филол.фан. д-ри. дисс. – Тошкент, 2015; Shomaksudova S., Israil M. OAVda yozma matn. Nutq va munozara. – Тошкент: Iqtisod-Moliya, 2018; Қўнғуров Р., Бегматов Э., Тожиёв Ё. Нутқ маданияти асослари. – Тошкент: Ўқитувчи. 1992.; Мирзаёнов А.Х. Современное понимание медиатекста в условиях конвергенции СМИ // Global science and innovations 2020: Central Asia. – Нур-Султан, 2020; Одилов Ё.Р. Глобализация даври публицистикаси тилининг таркиби. – Т.: Нодирабегим, 2020. – 140 б; Артиқова М.Р. Медиаматнда прецедентлик феноменининг лингвомаданий аспекти (ўзбек ва испан газеталари мисолида). Филол. фан... фалсафа доктори (PhD) дис. – Тошкент. 2022. –157 б. Актамова С.А. Фразеологизм медиаматнда ифодалаш ва баҳолашнинг услубий воситаси сифатида (турли тизимли тиллар газета матнлари асосида). Филол. фан... фалсафа доктори (PhD) дис. – Тошкент. 2022. –153 б.; Джаббаров Ш.Б. Медиадискурда муқобилсиз лексиканинг лингвомаданий аспектида тадқиқи (ўзбек, инглиз ва рус матбуоти мисолида). Филол.фан.фалсафа доктори (PhD)... автореф. – Тошкент, - 51 с.; Yaxyayeva N.X. Mediamatnda umuminsoniy qadriyatlar tizimining lingvokulturologik tadqiqi (ingliz va o'zbek tillari misolida). Filol.fan.falsafa doktori (PhD)...dis.avtor. – Toshkent, 2023. –54 б.

⁶ Teun A. van Dijk. Elite Discourse and Racism. – USA, 1993; Fowler R. Language in the News: Discourse and Ideology in the Press. – London, 1991 – 254 p.; Fairclough N. Analysing Discourse: Textual Analysis for Social Research. – Routledge, 2003. – 288 p.; Mattheson D. Media Discourses: Analysing Media Texts. Issues in Cultural and Media Studies. – Open University Press, 2005. – 224 p.; Montgomery M. Discourse of Broadcast News. A linguistic approach. – Routledge, 2007. – 246 p.; Schiffrin D. Approaches to Discourse. – Oxford; Cambridge, Mass.: Basil Blackwell, 1994. – 470 p.; Добросклонская Т.Г. Теория и методы медиалингвистики (на материале английского языка). – М., 2000; Шмелев Д.Н. Синтаксическая членимость высказывания в современном русском языке. – М.: КомКнига, 2006. – 152 с.; Бернштейн С.И. Язык радио. – М., 1977; Костомаров В.Г. Русский язык на газетной полосе. Некоторые особенности языка современной газетной публицистики. – М.: МГУ, 1971; Васильева А.Н. Газетно-публицистический стиль речи: курс лекций по стилистике русского языка. – М.: Русский язык, 1982. – 197 с.; Рождественский Ю.В. Теория риторики. – М., 1997; Солганик Г.Я. Общие особенности языка газеты // Язык и стиль средств массовой информации и пропаганды. – М.: МГУ, 1980.; Трескова С.И. Социалингвистические проблемы массовой коммуникации. – М., 1989, – С. 178; Лысакова И.П. Язык газеты: социалингвистический аспект. – Л.: ЛГУ, 1981; Кривенко Б.В. Язык массовой коммуникации: лексико-семантический аспект. – Воронеж, 1993.

⁷ Вафеев Р.А. Особенности языка современных СМИ // Средства массовой информации в современном мире. Петербургские чтения: Тезисы межвузовской научно-практической конференции / Под ред. В.И. Конькова. Шилина, М. Г. СПб.: Роза мира, 2005. Шилина, М. Г. 396.; Дахиль В.С. Инновации в языке современных российских интернет-медиа. Международный научно-исследовательский журнал ■ № 1 (115) ■ Часть 4 ■ Январь; Какорина Е.В. СМИ и Интернет-коммуникация (область пересечения и взаимодействия) // Язык современной публицистики: Сб. статей / Сост. Солганик Г.Я. Шилина М.Г. М.: Флинта: Наука, 2005. – 232 с. Колесникова М.М. Гипертекст как основа сетевой коммуникации. // Научные труды I Всероссийской конференции «Текст: теория и методика в контексте вузовского образования» (Тольятти, 14 – 16 октября 2003 года) / Под ред. Тарановой Г.И. – ТГУ, 2003. – 560 с.; Махинин Г.А. Мультимедийность как фактор развития сетевых сми на современном этапе (по материалам СМИ Татарстана). Автор.дис...канд.филол.наук. –Казань, 2013. -22 с.; Колокольцева, Т. Н., Лутовинова, О. В. (Ред.). Интернет-коммуникация как новая речевая

Medamakonda mentallik masalalari T.V.Chernishova, D.M.Teshabayeva, A.A.Saltikova, Y.Mirzayeva⁸ kabi olimlar tomonidan amalga oshirilgan.

Biroq elektron gazetalar tilning mentallik tabiatini yaqqol ko'rsatib beruvchi aksiologik paradigmaga asoslangan tadqiqotlar yetarli darajada o'rganilmaganligi va bu xususiyatlarini ochib berish zaruratini yuzaga keltiradi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Termiz davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Tilshunoslikning dolzarb muammolari" mavzusidagi ilmiy yo'nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi media olamining lisoniy manzarasida mentallik kategoriyasini ifodalovchi til vositalarini aniqlash, ularning shakllanishi va qo'llanilishidagi hamda mediamatnlarning auditoriyaga ta'sirini milliy-madaniy va ijtimoiy-siyosiy omillarni aksiologik yondashuv asosida tadqiq qilishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

tilshunoslikda mentalitet va mentallik tushunchalarining mohiyatini zamonaviy ilmiy adabiyotlarni o'rganish;

elektron gazetalar matnining shakllanishida jamiyat mentaliteti va qadriyatlari ta'sirini aksiologik yondoshuv asosida aniqlash;

mental birliklarning tillarda voqelanish jarayonini ijtimoiy-siyosiy, diniy, madaniy omillar bilan bog'liqligini asoslash va ularning mediamatnlarda namoyon bo'lish qonuniyatlarini tahlil qilish;

elektron gazetalar matnining shakllanishida mentalitet fenomenining madaniyat bilan uzviy bog'liqligini ilmiy asoslash;

mentalitetning media lisoniy manzarasida til vositalarida namoyon bo'lishidagi milliy – madaniy jihatlarni yoritish.

Tadqiqotning obyekti sifatida o'zbek va ingliz elektron gazeta matnlarida mentalitetni ifodalovchi til birliklari tashkil qiladi.

Tadqiqotning predmeti media olamining lisoniy manzarasida mentallik kategoriyasini ifodalovchi til birliklarining lingvomadaniy hamda aksiologik xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Ushbu tadqiqot doirasida tavsifiy, chog'ishtirma, semantik

формация. 2-е изд., стер. – М.: ФЛИНТА. 2012; Компанцева Л.Ф. Интернет-коммуникация: когнитивно-прагматический и лингвокультурологический аспекты. – Луганск, 2007; Прасолова Е.В. Функционально-стилевые особенности мультимедийной истории как жанра интернет-СМИ. Дис. ... канд. филол. наук. – М., 2016.; Шилина М.Г. Медиатекст в интернете: теоретико-методологические подходы к исследованию. Медиатекст: технологии воздействия. IV междунар. науч.-практ. интернет-конф. – Ставрополь: Северо-Кавказский федеральный университет. 2014.; Тешабаева Д.М. ва бошқ. Журналистика. III жилд. Медиалингвистика ва тахрир. – Тошкент: O'zbekiston, 2019.

⁸Чернышова Т.В. Тексты СМИ в ментально языковом пространстве современной России. Автор...дис.доктора филол.наук. – Барнаул, 2005. – 40 с; Пьяных, Д.А. Тенденции влияния средств массовой информации на ментальность российского общества: Социологический анализ. Автор...дис. канд.социолог.наук. – Москва, 2003.; Салтыкова А.А. Имплицитная аксиологическая модальность в текстах СМИ. Дис.. канд.филол.наук. – Москва, 2014. – 163 с; Тешабаева Д.М. Ментальность языка в медиапространстве.<file:///C:/Users/ACER/Downloads/mentalnost-yazyka-v-mediaprostranstve.pdf>; Мирзаева Е. [Влияние ментальности на язык СМИ \(на примере телевидения Узбекистана\)](https://www.researchgate.net/publication/341548652_vlianie_mentalnosti_na_azyk_SMI_na_primere_televidenia_Uzbekistana). https://www.researchgate.net/publication/341548652_vlianie_mentalnosti_na_azyk_SMI_na_primere_televidenia_Uzbekistan.

komponentli, komponent tahlil va kontekstual tahlil lingvomadaniy usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

mediamatnning mazmuniy va struktural komponentlarining voqelanish xususiyatlarini elektron bosma medianing lisoniy manzarasida mentallikni ifodalovchi lisoniy birliklar asosida ochib berish orqali mediakommunikatsiyaning pragmatik tamoyollari ishonchlilik, relevantlik va kontekstuallik aspektlarida aniqlangan;

mentalitetning milliy an'analar, urf-odatlar, turmush tarzi va dunyoqarashni aks ettiruvchi grammatik tuzilmalar hamda leksik va sintaktik sathda metaforalar, paremiyalar, iboralar, ramzlar orqali ifodalanishi milliy tafakkur shakllanishiga ta'sir etuvchi milliy-madaniy, ijtimoiy-siyosiy hamda diniy omillar bilan uzviylikda dalillangan;

tezkor axborot oqimi sharoitida auditoriyaning mental dunyoqarashini shakllantirishda ma'lumotni tanlash, ta'kidlash va talqin qilish unsurlari mediamatnning ekspressivligi, nutqiy-madaniy bahosi, lisoniy manzarani namoyon etuvchi mental birliklarning mediakommunikatsiyada voqelanish xususiyatlariga ko'ra ochib berilgan;

mediamatnlarning adresat → media janr → nutqiy tasnif → konsept tizimida jamiyatning nutqiy madaniyati, muloqot qoidalari, an'ana va urf-odatlarning milliy qadriyatlar bilan uyg'unligi lingvomadaniy tahlil negizida publitsist-jurnalist va auditoriya mentalitetining o'zaro ta'siri tamoyilida asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

media olamining lisoniy manzarasida mentallikni ifodalovchi birliklarning madaniy xususiyatlarini o'rganish natijalari medialingvistikaning zamonaviy ilmiy-nazariy yo'nalishlarini tasniflashga xizmat qiladi;

media olamining lisoniy manzarasida mentallik kategoriyasini ifodalovchi birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari bo'yicha chiqarilgan xulosalar zahirida mediamatnda mentalitetni ifodalovchi lisoniy birliklar qadriyatlar bilan bog'liq holda tahlil qilingan;

mentallikning aksiologik yondashuv asosida elektron gazeta matnining shakllanishiga oid xulosalar tegishli oliy o'quv yurtlarida darslik, o'quv qo'llanmalari va elektron lug'atlarni yaratish uchun muhim nazariy va amaliy manba bo'ladi;

tadqiqot natijalari elektron gazeta matnida mentallikni ilmiy-amaliy ahamiyatga ega ekanligi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi Dissertatsiya ishida zamonaviy tilshunoslikda qo'llanilayotgan tadqiqot usullarining tadbiqu asosida mavzu bo'yicha ilmiy asoslangan nazariy xulosalar chiqarilgan. Elektron gazetalar matnidan olingan misollarni tahlil qilish orqali media olam lisoniy manzarasida mental kategoriyasi voqelanishining aksiologik jihatiga doir fikrlar umumlashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, unda mentallik kategoriyasi medialingvistik tamoyillar

va mentallik kategoriyasini ifodalovchi lisoniy birliklar medialingvistika, semiotika, lingvomadaniyatshunoslik, etnolingvistika, jurnalistika sohalariga oid tadqiqot muammolarini yoritishda ilmiy-nazariy manba sifatida xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Ishning amaliy ahamiyati shu bilan aniqlanadiki, “Medialingvistika”, “Gazeta tili va uslubi”, “Leksikologiya”, “Umumiy tilshunoslik”, “Lingvokulturologiya”, va “Media tarjima” kabi fanlar bo'yicha darslik va o'quv-qo'llanmalarni yaratish, ma'ruzalar hamda maxsus kurslarni tashkil etishda makonni ifodalovchi lisoniy birliklarning o'zbek va ingliz tillaridagi universallik va idioetnik jihatlaridan foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Elektron gazetalarda medianing lisoniy manzarasida mentallik xususiyatlari tahlili bo'yicha olingan ilmiy natijalar va amaliy takliflar asosida:

mediamatnlarni auditoriyaga taqdim qilishda til vositalarini tanlash mentalitet bilan bog'liqligini ilmiy asoslash orqali mediamatnning mazmuniy va struktural komponentlari, elektron bosma medianing lisoniy manzarasida mentallikni ifodalovchi birliklarning voqealanishida mediakommunikatsiyaning maqsadga muvofiqlik prinsipi va nutqiy strategiyalarning o'rni aniqlanganiga oid tavsiya va xulosalardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining “O'zbekiston” teleradiokanali DM “Madaniy-ma'rifiy va badiiy eshittirishlar” turkumidagi “Ta'lim va taraqqiyot”, “O'smirlar uchun” nomli eshittirishlarni tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O'zbekiston teleradiokanali” Davlat Muassasasining 2023-yil 22-noyabrdagi 04-36-1754-son ma'lumotnomasi). Natijada o'zbek va ingliz media matnlarining mentallik, aksiologik tadqiqi xususida radiotinglovchilarga, jumladan, filologik yo'nalishlarda ta'lim beruvchi professor-o'qituvchilar va talabalarga ilmiy-nazariy ma'lumot berilgan;

mentalitetning milliy an'analar, urf-odatlar, turmush tarzi va dunyoqarashni aks ettiruvchi grammatik tuzilmalar bilan hamda leksik, sintaktik, metaforalar, paremiyalar, iboralar, ramzlar va milliy tafakkur shakllanishiga ta'sir etuvchi milliy-madaniy, ijtimoiy-siyosiy hamda diniy omillar bilan uzviyligi lingvokulturologik asosda dalillangan ilmiy natijalar va materiallaridan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida Davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasida 2021–2023-yillarda amalga oshirilgan F3-201912258 “O'zbek adabiyotining ko'p tilli (o'zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish” nomli amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2023-yil 4-dekabrdagi 01/4-2589-son ma'lumotnomasi). Natijada loyiha asosida yaratilgan platformaning mazmun-mohiyati boyitilgan;

tezkor axborot oqimi sharoitida auditoriyaning mental dunyoqarashini shakllantirishda mediamatnning ekspressivligi, nutqiy-madaniy bahosi, lisoniy manzarani namoyon qiluvchi medianing asosiy tushunchalari mental birliklar orqali ochib berilgani xususidagi ilmiy taklif va tavsiyalardan O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari akademiyasida 2021–2022-yillarda bajarilgan “O'zbek harbiy sa'nati tarixi” nomli fundamental loyihada, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi

Mudofaa vazirligi tasarrufidagi oliy harbiy ta'lim muassasalari uchun "ingliz tili" fan dasturlarini takomillashtirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining 2023-yil 5-dekabrdagi 10/2361-son ma'lumotnomasi). Natijada xulosalar va tavsiyalar loyiha doirasida elektron resurslar, nazariy va amaliy materiallarni tayyorlashda muhim manba bo'lib xizmat qilgan;

mediamatnlarning "adresat → media janr → nutqiy tasnif → konsept" tizimida jamiyatning nutqiy madaniyati, muloqot qoidalari, an'ana va urf-odatlarining milliy qadriyatlar bilan bog'liqligi, bu jarayonda publitsist-jurnalist va auditoriya mentalitetining o'zaro ta'siri komponent tahlil negizida asoslangan xulosalardan "Yoshlar ovozi" gazetasining ruknlarini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi "Yoshlar ovozi" gazetasining 2023-yil 26-yanvardagi 7/24-son ma'lumotnomasi). Natijada mediamatnlarning milliy-madaniy, tarbiyaviy, ma'rifiy ahamiyati oshirilib, ommaviy auditoriyaning mediamatnlar, jumladan, elektron gazetalar bilan yanada kengroq tanishish imkoniyati yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot 6 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 17 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 140 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida mavzuning dolzarbligi asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, natijalarni amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **"Mediamakonda mentallik kategoriyasi tadqiqining ilmiy-nazariy asoslari"** deb nomlangan birinchi bobda tilshunoslikda "mentalitet" va "mentallik" hodisasiga ilmiy – falsafiy yondashuv, bosma elektron gazetalarining aksiologik tadqiqi masalalari tahlilga tortilgan.

Tilning mental tasavvurlari va xalqning madaniyati bilan o'zaro bog'lanishda bo'lishi jihatidan ko'rib chiqish muammosi tilshunos olimlar tadqiqotlari markazidan joy olmoqda. O'z vaqtida buyuk nemis tilshunos olimi V. fon Gumboldt ma'lum bir tilda so'zlashuvchining tilida uning dunyoqarashi saqlanib qoladi va, so'zlashuvchi atrof-muhit borlig'ini qay tarzda idrok qilishiga qarab, til o'sha dunyo ko'rinishlarini tasvirlaydi, degan xulosaga kelgandi⁹. Darhaqiqat, Omonulla Madayev ta'biri bilan

⁹ Гумбольдт В. Избранные труды по языкознанию. 2-е изд. – М.: Прогресс, 2000. – С. 45.

aytganda “Til millatning ma’naviy boyligi, g’ururidir”¹⁰. Zero, til millat mentaliteti o’zagidir. Tilning asosiy vazifalaridan biri urf-odat, an’analarni saqlashdir. Tilga millat qiyofasining bir bo’lagi sifatida qaraladi.

Ma’lumki, inson madaniyati, ijtimoiy xulq-atvori, tafakkuri va mentaliteti tilsiz va tildan tashqari holda mavjud bo’lmaydi hamda bu xususiyatlar tilning leksik tizimida o’z aksini topishi haqida ilmiy manbalarda takror-takror ta’kidlab o’tilgan. Zero, “Insonlar o’rtasida muloqot vositasi sifatida xizmat qiluvchi til o’z tabiatiga ko’ra ijtimoiy va milliy xarakterga ega bo’lgani bois, u mazkur til jamiyatiga xos dunyoqarash, axloqiy va madaniy qadriyatlar, xulq-atvor me’yorlari shuningdek, mentalitetni o’ziga xos belgilarini o’z ichiga oladi”¹¹.

Ma’lumki, tilning strukturasi uning egalarida shakllangan dunyoqarash hamda kognitiv jarayonlarga ta’sir ko’rsatadi. Shu bois, insonning ona tilisi uning ongida mavjud tushunchalar tizimini va tafakkurining o’ziga xos xususiyatlarini belgilab beradi. Shu bilan birga, bir jamoaga tegishli bo’lgan til va madaniyat doirasida mazkur til egalariga xos bo’lgan tarixiy tajriba o’z ifodasini topgan bo’lib, turli til egalaridagi mental tasavvurlar o’zaro mos kelmasligi mumkin¹². Shu bois dunyo manzarasining lingvistik konseptuallashtirishdagi farqlar turli muammolarni keltirib chiqaradi.

Har bir millatning mentaliteti, uning tarixi, yashab turgan shart-sharoiti, ijtimoiy faolligi va boshqa bir qancha omillar bilan bog’langan bo’ladi”¹³ qabilida ta’riflangan.

Manbalarga ko’ra, mentalitet va mentallik alohida bir inson yoki jamoa guruhiga tegishli bo’lgan fikrlash tarzi, aqliy ko’nikmalar va ma’naviyatga oid yo’l-yo’riqlar yig’indisi¹⁴. Mentalitet jamiyatdagi o’zgarishlar, texnika taraqqiyoti, globallashtirish va boshqa omillar ta’sirida ham shakllanishi, mentalitet turg’un emas va u turli omillar va hodisalar ta’sirida vaqt o’tishi bilan rivojlanishi mumkin.

“Mentalitet va mentallik” – bu jamoaviy va individual ongning bilish darajasi, shu jumladan ongsizlik bo’lib, individ yoki ijtimoiy guruhning dunyoni ma’lum bir tarzda harakat qilish, fikrlash, his qilish va idrok etishga munosabati va moyilliklari majmuidir¹⁵“.

Buyuk tilshunos olim V. fon Gumbolt: “Millat mentalitetini eng aniq ifoda etuvchi omil – bu tilning grammatik tuzilishi, zero u tafakkur tizimiga eng yaqin bo’lgan sohadir. Agar tilning so’z boyligi uning dunyo manzarasining hajmini ifodalasa, uning grammatik tuzilishi inson tafakkurining ichki tartibi haqida tasavvur beradi” – deb yozadi¹⁶. “Millatning til ongi” kabi muhim termin ilk bor V. fon Gumbolt tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan.

¹⁰ Омонулла Мадаев: Тил миллатнинг маънавий бойлиги, ғуруридир - Халқ сўзи (xs.uz)

¹¹ Дербишева З.К. Национальный менталитет и его отражение в языке.

<https://altaica.ru/Articles/mentalitet.php> (дата обращения. 12.01.2024).

¹² Уорф Б. Л. Отношение норм поведения и мышления к языку // Новое в лингвистике. Вып. 1. М. 1960. 135 с.

¹³ Менталитет – QOMUS.INFO (дата обращения. 12.01.2023).

¹⁴ Большой энциклопедический словарь / гл. ред. А.М. Прохоров. – М.: Большая Рос. энциклопедия. СПб.: Норинт, 1997. – С.77.

¹⁵ Малахов В., Филатов В. Современная западная философия: словарь. 1998. URL:<http://terme.ru/dictionary/189>.

¹⁶ Вильгельм фон Гумбольдт. Избранные труды по языкознанию. – М.: “Прогресс”, 1984, – С. 345.

X.I. Shermatova fikricha, “Milliy mentalitetni ifodalash va uzatishning eng muhim vositalaridan biri til hisoblangani sababli, uning tarkibida millatga xos bo’lgan leksik birliklar, frazeologik ifoda va maqol-matallar, shuningdek, milliy an’analar, urf-odatlar, turmush tarzi va dunyoqarashni aks ettiruvchi grammatik tuzilmalar mavjud ekanligini inobatga olish zarur. Til madaniyatning asosiy omillaridan biri sifatida – milliy mentalitetni leksik, sintaktik, grammatik kategoriyalar, metaforalar, paremiyalar, iboralar, obrazlar va milliy tafakkur shakllanishiga ta’sir etuvchi boshqa omillar orqali ifodalaydi va avloddan-avlodga uzatadi”¹⁷.

Ma’lum munosabatlarni ko’p marta takrorlash natijasida inson ongida “tajriba kategoriyasi” deb ataluvchi tushuncha shakllanadi. Asosan bu – tilda ifodalanishi mumkin bo’lgan tushunchalar kategoriyasidir. Ayni ana shu ponyatiy kategoriyalar tilning morfologik kategoriyalari uchun asosiy poydevor hisoblanadi. Ular har qanday tilning bazaviy atributlarini tashkil etuvchi tizim hosil qiluvchi birliklardir. Bu kategoriyalar, eng avvalo, muayyan tilning egasi bo’lgan shaxsning til ongida ildiz otgan bo’ladi¹⁸. Har qanday tilning grammatik tuzilishi uning eng mustahkam va barqaror qismlaridan biri sifatida til evolyusiyasining uzoq davrlarini qamrab oladi. Uning shakllanishi ko’pincha asrlar, hatto ming yilliklar davomida, jamiyatning ijtimoiy, siyosiy va madaniy muhiti bilan chambarchas bog’liq holda kechadi. Shu bois tilning grammatik tizimida jamiyatga xos mental qadriyatlar, dunyoqarash va tafakkurning milliy modelida aks etadi.

Mentallikni til kategoriyasi sifatida tadqiqot qilishda tilning ma’no, mohiyat, tushuncha, konsept, kategoriya singari ko’rinishlari o’rtasidagi murakkab korrelyatsiyalarni (o’zaro bog’langanliklari) hisobga olish kerak. Fikrlash va til mazmunini farqlab ajratish mahalliy tilshunoslikka an’anaviy hisoblanadi.

Tadqiqotchilar tomonidan mentalitet shakllanishiga ta’sir etuvchi quyidagi asosiy omillar ko’rsatiladi: 1. Til va madaniyat o’rtasidagi o’zaro bog’liqlik. 2. Tarixiy omillar. 3. Ijtimoiy omillar. 4. Geografik omillar. 5. Diniy omillar. 6. Siyosiy omillar. 7. Iqtisodiy omillar. 8. Til strukturalari. 9. Sintaktik xususiyatlar. 10. Obrazlar va ramzlar. 11. Metaforalar. 12. Idiomalar. 13. Paremiyalar (maqol va matallar)¹⁹. Ushbular mental kategoriyaning voqealanishida muhim o’rin tutadi.

Gazeta matnlari – jamiyatning real voqyealigi, milliy qadriyatlari va umumiy tafakkurini ifoda etuvchi boy manba hisoblanadi. Tadqiqotda elektron gazetalardan olingan misollar asosida milliy mentalitetni ifoda etuvchi mental kategoriyalar tahlili keltirildi. Masalan, o’zbek mentalitetini namoyon bo’lishida tarixiy omillar vaqt va xotira konseptlari bog’liqligi: “*O’tmishdagi muzaffar g’alabalar bugungi istiqlol g’oyasini boyitmoqda*”. Ushbu misolda “o’tmish”,

¹⁷Шерматова Х.И. Национальный менталитет и его отражение в языке. <file:///C:/Users/ACER/Downloads> (дата обращения. 03.05.2023).

¹⁸ Серебренников Б.А. Роль человеческого фактора в языке. Язык и мышление. – М.: Наука, 1988 – С. 33.

¹⁹Шерматова Х.И. Национальный менталитет и его отражение в языке. <file:///C:/Users/ACER/Downloads> (дата обращения. 03.05.2023).

“muzaffar”, “g’oya” kabi soʻzlar millatning tarixiy xotirasiga bogʻlangan vaqt, milliy gʻurur va mental meros tushunchalarini ifodalagan boʻlsa, diniy omillarga “*Ramazon insonlarni bagʻrikenglikka, sabr-bardoshga oʻrgatadi*” misolini keltirish mumkin. Maʼlumki, “Ramazon” leksemasi orqali islom madaniyati va qadriyatlariga oid axloqiy mental kategoriyalar *bagʻrikenglik, sabr, bardosh* kabi tushunchalar voqealanishida koʻrishimiz mumkin.

Mentallikni til kategoriyalari turiga tegishli boʻlishi asoslidir, chunki u eksplitsit morfologik ifodalarga ega boʻlmagan, lekin fikrni tuzish va tushunish uchun aytarli darajada muhim boʻlgan til birliklarining semantik belgilarini obyektivlashtiradi²⁰.

Mental kategoriyalar - inson tafakkuri orqali shakllangan universal yoki milliy xususiyatga ega boʻlgan tushunchalar majmuasidir. Bularga vaqt, makon, sabab-natija, ehtimollik, holat, maqsad, munosabat, majburiyat kabi konseptlar kiradi. A.A. Gvozdevaning aytishicha, til – bu bizdan yashiringan mentallik sferasiga kirishimizga yordam beradigan vositadir, chunki til u yoki boshqa madaniyatda dunyoni qismlarga boʻlish usulini belgilaydi²¹. Axir aynan til tafakkur, madaniyat, tarix bilan bogʻlanib, alohida millatning mentalitetini shakllantiradi.

Shuningdek, har bir milliy til moddiy dunyo haqida oʻzining noyob tasavvurlariga egadir, va bu moddiy dunyo shu xalqning faoliyati va hayoti muhiti boʻla turib, oʻz til vositalariga egadir.

V.V. Kolesov mentallikning asosiy birligini konsept deb biladi. Bundan tilda mazkur madaniyatning anʼanaviy simvollarida oʻzlarining tugallangan koʻrinishlarida taqdim qilinadigan milliy xarakter ham, milliy gʻoya ham, milliy oliy timsollar ham aks ettiriladi²².

Hozirgi vaqtda OAVda mentallik va uning media tiliga taʼsiri yoki til orqali mentallikni namoyon qilish borasidagi tadqiqotlar sohasida yangi yoʻnalish boʻlib, ushbu yoʻnalish, baʼzi ekspertlarning fikriga koʻra, alohida ilmiy va oʻquv fanlariga aylanish salohiyatiga egadir. Publitsistika aksiologiyasi doirasida konseptual apparat ishlab chiqilishi tadqiqotga oid anʼanalarning boshlanishi, ammo ushbu anʼanalar hali barqaror rivojlanish darajasiga yetmaganligi haqida guvohlik beradi.

Mediamatnlarni aksiologik yondashuv nuqtayi nazaridan tadqiqi mentallik fenomenini keng koʻlamliligi koʻrish imkonini beradi. Zero, hozirgi vaqtda xalqaro va mahalliy gumanitar fanlarda insonning maʼnaviy faolligi, uning dunyoni tushunishi va oʻzlashtirishining asosini tashkil qiluvchi til haqidagi tasavvurlariga asoslangan til, nutq, matn uchligida aksiologik yondashuvni talab qilmoqda.

²⁰ Л.Ю.Буянова,Э.В.Начкебия. Ментальность как лингвистическая категория [file:///C:/Users/ACER/Downloads/mentalnost-kak-lingvisticheskaya-kategoriya\(1\).pdf](file:///C:/Users/ACER/Downloads/mentalnost-kak-lingvisticheskaya-kategoriya(1).pdf) №4 (33), 2009.

²¹ Гвоздева А.А. Языковая картина мира: лингвокультурологические и гендерные особенности (на материале художественных произведений русскоязычных и англоязычных авторов). Дис. ... канд. филол. наук. – Тамбов, 2003. – С.38.

²² Колесов В.В. Язык и ментальность. – СПб.: Петербургское востоковедение, 2004. – С.81.

Bizning fikrimizcha, til mentalligi voqelikning ma'lum bir jihatlari va ularning tilda ifodalanishi o'rtasidagi muvofiqlikni namoyon qiladi. U leksik va grammatik modellarda taqdim qilinishi mumkin. Asosiy jihati sifatida qaraladigan leksik til mentalligi so'z orqali ifodalanadigan tushunchalar va ma'nolar o'rtasidagi aloqani aks ettiradigan *leksik-semantik-mental* tizimda namoyon bo'ladi.

D.M. Teshabayeva fikricha: "Har qanday xalqning mentalitetining shakllanishi ko'plab omillar ta'sirida sodir bo'ladi. Mentallik xalqga xos xususiyat bo'lib, uning ruhiy holatini, hayotdagi mavqeini belgilaydi. Ommaviy axborot vositalariga nisbatan mentallikni, voqea-hodisaga baho berish va ma'lum an'analarga amal qilishda ma'lum stereotiplar tizimi sifatida qarash mumkin"²³.

Mentallikni aksiologik tadqiqi, mentallikning ba'zi xususiyatlari ya'ni, mentalitet o'zida onglilik va ongsizlik, ratsional va emotsional, jamoaviy va individual, fikrlash va xulq-atvor, ishonch va hayot tarzini mujassamlantirishi; evolyutsion jihatdan turli xil xalq vakillari o'rtasidagi farqli va o'xshash jihatlari ularning ma'naviy xulq-atvor spetsifikligini hosil qilishi va h.k.

Gazeta leksikasiga hozirgi paytda diniy va axloqiy qadriyatlarni aks ettirishga oid leksikani qo'llash yuqori ekanligini kuzatamiz: *ramazon hayit, hayit, qurbonlik, so'fizm, umra safari, toat-ibodat, juma namoz, iymon, insof, diyonat, halollik* va h.k. O'zni bilan buning aksi sifatida diniy ekstremizm, axloqsizlik, qadriyatlardan chekinish bilan bog'liq so'zlar qo'llanilishi kuzatiladi: *terrorizm, islom fundamentalizmi, missionerlik, diniy ekstremizm, janjal, tungi kapalaklar, haqorat qilmoq, andishasizlik, behayo suratlar* va h.k.

Ikkinchi bob: "Elektron gazetalarda til mentalligining lingvistik tasnifi" deb nomlangan ikkinchi bobda elektron gazeta tilining mentallik xususiyatlari, mediamatda mental kategoriyasining voqelanishida leksik birliklarning tasnifi, mental kategoriyalarining so'z birikmalarda voqelanishi ko'rib chiqilgan.

OAV orqali milliy tilda millatlararo xislatlar shakllanadi. Millatlararo xislatlarning shakllanishiga OAV janrlarining bir turga mansubligi ta'sir o'tkazmasligi mumkin. Ommaviy axborot dunyoning turli mamlakatlarida turlariga ko'ra semiotik sistemasi, statistik va dinamik tasvir bilan aloqa shakli mavjudligi hamda matn kollajiga ko'ra tavsiflanadi. Bu xabarlarining shunday birikuviki, unda OAVning barcha nashrlari o'zida tugal ma'noli timsolni aks ettiradi²⁴.

Alohida ta'kidlash lozimki, axborot iste'molchisining mentallik mavqeini hisobga olish bilan ta'sirchanlikka erishish ham OAVning vazifalaridan biri hisoblanadi. Mediamatda baholash orqali stilistik bo'yoqdorlikka erishish kuzatilmoqdaki, bunda baholovchi leksikani to'ldirish maqsadida muayyan manbalarga murojaat qiladilar, ya'ni turli usuldagi til birliklarini qo'llaydilar.

²³ Тешабаева Д.М. Оммавий ахборот воситалари тилининг нутқ маданияти аспектида тадқиқи (Ўзбекистон Республикаси ОАВ мисолида):. – Б. 10.

²⁴ Тешабаева Д.М., Бакиева Г.Х., Израил М.И., Тошмухамедова Л.И., Нуритдинова М.Ч. Журналистика. III жилд. Медиалингвистика ва таҳрир. – Тошкент: O'zbekiston, 2019. – С.49.

Masalan, *“Oftob zarkokil shu’lari bilan so‘zlashadi, kamalak nurlari bilan fikrlaydi. Dehqon zaminni shudgorlar ekan, kelgusi yil hosili haqidagi tansiq o‘ylarini ham tuproqqa singdirib yuboradi. Gullagan bog‘-rog‘lar, larzon-larzon mevalar bog‘bon yuragining tajallisidir. Vosil bo‘lgan ezgu niyatlar haqiqatidir”* (xs.uz. 03.06.21). Ushbu misolda ko‘rinishimiz mumkinki, *“oftob so‘zlashadi”, “kamalak nurlari bilan fikrlaydi”, “tansiq o‘ylarini ham tuproqqa singdirib”, “ezgu niyatlar”* kabi jumladan foydalanilgan. Jurnalist stilistik bo‘yoqdor vositalarga murojaat qilish orqali matn ekspressivligini oshirishga erishgan. Albatta, bunday til vositalaridan foydalanish media tili mentallik xususiyatlari bilan bog‘liqdir.

Elektron gazetalar matnning mental xususiyatlarining tadqiqi quyidagi leksemalarning faolligini ko‘rsatdi: *vatan, vatanparvarlik, xalqparvarlik, insonparvarlik, ma’naviyat* va h.k.

“Vatan” va “vatanparvarlik” konsepti. Ma’lumki, o‘zbek xalqi uchun Vatan tushunchasi *davlat, mamlakat, yurt, diyor, el, o‘lka, shahar, boshpana, uy, turar joy* kabi leksemalar orqali ifodalanadi. O‘zbek xalqi uchun Vatan tushunchasi ulug‘lanishi, mo‘tabar ne‘mat sifatida qaralishi *“ONA”, “QADRDON”* leksemalari bilan birga ifodalanishida ko‘ramiz: *ona zamin, ona yer, ona yurt, qarddon maskan, qarddon zamin, qarddon yer* va h.k. Shuning bilan birga, Vatanni o‘zbek xalqi uchun naqadar ulug‘lig‘i va ularda milliy g‘urur, iftixor tuyg‘ulari bilan bog‘liqligini bildiradi: *“kindik qon to‘kilgan” joy, maskan, o‘lka, zamin* iborasi orqali ifodalanishida ko‘ramiz. Ushbu til birliklarining assotsiativ aloqasini aks ettirilishi kuzatiladi.

Elektron gazeta matni orqali Vatanga muhabbat, sadoqat tuyg‘ularini hamda auditoriyada vatan yuksak tuyg‘u ekanligini singdirish media tilining mentallik xususiyatlaridan kelib chiqadi: Misollarga murojaat qilamiz: *“Yana aytishdiki, Vatan – hech kimga berilmas ma’vodir, dushmanning oyog‘i qirqiladigan tabarruk tuproq. Vatan Ona ekan, yaxshi-yu yomon bolasini tishida tishlab o‘tar ekan Vatan, subhidamda, chol tushda, uzun tunda taraladigan Ona allasi ekan Vatan!”* (uza.uz.21.08.2020); *“Xalqimiz odatda Vatan so‘ziga Ona so‘zini qo‘shib talaffuz qiladi: Ona vatan. Bu Vatanning onaday aziz, mehribon, jonkuyarligiga ishora bo‘lsa kerak-da. Axir inson uchun onadan azizroq kishi bormi?”* va h.k. O‘zbek tilida “Vatan” konsepti gazetalarda *“ona zamin”, “sevimli makon”, “ona vatan”*; *“tabarruk tuproq”* tushunchalari orqali ifodalanishi kuzatildi.

Inglizlarda **“Motherland”** (vatan) tushunchasi insonning o‘z vataniga yoki hududiga aloqadorligini va tegishliligini aks ettiruvchi asosiy tushunchalardan biri hisoblanadi. Bu konsept odatda vatanparvarlik, milliy g‘urur va o‘z vatanini qabul qilish va himoya qilish g‘oyasi bilan bog‘liq. “Motherland” ingliz mentalligida vatanparvarlik hissini uyg‘otishga qaratiladi:

“Celebrating the Spirit of Patriotism: Exploring the Heart of the American Motherland”; “But the heart of the American motherland beats not only in the halls of power or on the battlefield, but in the everyday lives of ordinary citizens who strive to make a difference in their communities”; “In the words of President

Abraham Lincoln, “My dream is of a place and a time where America will once again be seen as the last best hope of earth”. Let us work together to ensure that the spirit of patriotism continues to thrive in the heart of the American **motherland for generations to come**” va h.k. Misoldan ko‘rinib turibdiki, Amerika xalqi mentalligini shakllantirishda vatanparvarlik tuyg‘usi gazetalarda namoyon bo‘ladi. Umuman olganda, gazetada “Motherland” tushunchasini serqirra aks ettirish, o‘quvchilarda o‘z Vataniga mehr va iftixor tuyg‘ularini uyg‘otish, millat birligi anglatadi va “native land”, “old country”, “one’s native land”, “country” konseptlarini o‘z ichiga oladi (“The New York Times”.24.03.2022).

Ushbu bobda o‘zbek mentalligini namoyon qiluvchi *xalqparvarlik, insonparvarlik, ma’naviyat, vatanparvarlik, ezgulik, insoniylik, muhabbat, adolat, qonuniylik, hokimiyat, mehr-oqibat, odamiylik, tarbiya, imon, insof, ota-ona, sadoqat, poklik* konseptlarini elektron gazeta matnlarida namoyon bo‘lishi kuzatildi.

Albatta, tilda mentalitet kategoriyasining eng muhim vositasi so‘z, tushunchalar hisoblanadi. Ular milliy til ichidagi mental tashkil etuvchi o‘zaro qurilish bloklari bo‘lib xizmat qiladi: *saxovat, mehmondo‘st, haqqoniy, idrok, aql, pok, qalb, sabr, matonat, imon, insof, sadoqat, mehnatkash* va h.k. so‘zlar o‘zbek millati uchun qadrli bo‘lib, qadriyatlar tizimidan muqim o‘rin egallagan.

O‘zbek elektron gazetalar matnida o‘zbek xalqining mental xususiyatlarini aks etuvchi leksik birliklar qatorida *e’tiqod, diyonat, adolat, insof* kabi leksik birliklar kuzatildi. “*E’tiqod*” – chin dildan ishonish; *iqror* – so‘zda buni tan olish; *amal* – ishonchni yaxshi ishlar bilan isbotlash ma’nosida keladi.

“*Diyonat*” tushunchasi, diyonatli bo‘lishlik kishining yuksak ma’naviy fazilati sifatida qaraladi: Diyonat leksemasining mediamatnda voqelanishi: “Diyonat, adolat va qat’iyat bilan amalga oshirilgan siyosat” (adolat.uz/news07.04.2021); “*Amir Temur shaxsiy hayotida uch mo‘tabar asos – diyonat*, adolat va qat’iyat bilan amalga oshirilgan siyosatga tayangan” (adolat.uz/news.07.04.2021) va h.k.

“*Muqaddas boylik bo‘lmish tinchlik, yuksak fazilatlardan bag‘rikenglik, jahon ibrat olgusi buyuk tarix, pok imon-e’tiqod, ilmga tayanib ish tutish va ulug‘ kelajakni yaratish kabi...*” (xs.uz/uzkr 21.09.2021). Ushbu misolda imon-e’tiqod konsepti ikki tushuncha birikuvi asosida murakkab qo‘shma so‘zni yasagan hamda pok leksemasi orqali ushbu tushunchaning ma’nosi kuchaytirilgan.

O‘zbek mentalitetida “**Saxiylik**” eng yaxshi insoniy xulqlardan hisoblanadi. Buni o‘zbek media olamida kuzatishimiz mumkin. Ularning sarlavhalarda aks etishini quyidagi misollarda kuzatildi: “**Saxiylik eng yaxshi insoniy xulqlardandir**”; “**Saxiylik – oliy fazilat**”; “**Saxiylik – saxovat ko‘rsatib, uni unutishdadir**”; “**Saxiylik – yaxshilikning kaliti**”; “**Saxiylik, shukronalik va mehr-oqibat bayrami**”; “**Saxiylik xalqimiz ardoqlagan fazilat**” va h.k. Qiyoslash: “*Tejamkor kishi xasis, saxiy esa isrofchi bo‘lmasin...*”²⁵ va h.k.

²⁵; <https://uza.uz.uz/newsid/2020/04/10/mentalitet/saxiylik/1110>

Ingliz tilida mentallikni ifodalovchi leksik birliklarga “*philanthropist*”, “*resilience*”, “*hospitality*”, “*adaptability*”, “*patriot*”, “*perseverance*”, “*integrity*” quyidagilarni keltirishimiz mumkin.

“*Philanthropist*” tushunchasi o‘z mablag‘larini jamoat manfaatlari yoki xayriya ishlariga bag‘ishlaydigan, odamlarga yordam berish va jamiyatning turli muammolarini hal qilishga intiladigan shaxslarni ifodalaydi. Bu mental birlik o‘zbek tilida “xayriyaparast” yoki “xayriyachi” ma’nolarni anglatadi. “*Charitable giver*” ya’ni “*charitable*” bu “xayriya” hamda “*giver*” bu “beruvchi”, “xayriya qiluvchi” ma’nosini ifoda etsa, “*the benefactor*” so‘zi esa “saxovatli”, “xayr-ehson qiluvchi” ma’nosida qo‘llaniladi. Ushbu tushunchaning antimental shakli sifatida esa “*misanthrope*” yoki “*selfish person*” kabi leksik birliklari mavjud. Ingliz elektron gazetalariga murojaat qilamiz: “*Philanthropy can be compatible with justice. But it requires a conscious effort on behalf of philanthropists to make it so. The default inclines in the opposite direction. Reinhold Niebuhr, in his 1932 book Moral Man and Immoral Society, suggests why: “Philanthropy combines genuine pity with the display of power [which] explains why the powerful are more inclined to be generous than to grant social justice” (“The Guardian”.08.09. 2020).*

Leksik-semantik guruh tarkibiy elementlarini bevosita jurnalist “meni” bilan ham berilishiga guvoh bo‘lamiz: “... *men hayotimdagi eng katta orzularimdan biri bo‘lmish Imom Buxoriy hazratlari qabrini ziyorat qilish* va uning nomi bilan ataluvchi xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi bilan yaqindan tanishishga muyassar bo‘ldim”²⁶. Ushbu misol orqali xalqimizning ajdodlarga hurmati ifodalanmoqda. O‘zbek elektron matbuotida qabrni ziyorat qilmoq birikmasining o‘ziga xosligi mavjud. Ma’lumki, o‘zbek mentalitetini olamdan o‘tkan insonlarni ta’ziya bildirish ularning qabrini ziyorat qilish mustahab sanaladi. Shu nuqtayi nazardan tez-tez ana shu boradagi xabarlar gazetalarda yoritiladi: “*Karim Kamolov qabri ziyorat qilindi*” ([president.uz/uz/lists/view 21-05-2020](http://president.uz/uz/lists/view/21-05-2020)).

“*Mehr-oqibat* deganda men shuni tushunamanki, bu – insonlarning bir-biriga yaqinligi, yaxshi-yomon kunida *yordam qo‘lini cho‘zishi*, har insonga *qo‘lidan kelgancha yordam berishi va mehr-oqibatligini isbotlashligi*. Men dunyoda har turdagi insonlarni kuzatishuvchan, kimdir *mehr-oqibatli* yana kimdir esa *mehr-oqibatsiz*” ([uza.uz/uz 29.03.2013](http://uza.uz/uz/29.03.2013)).

Ingliz tilidagi mentallikni ifoda etuvchi so‘z birikmalariga “*ancestral reverence*”, “*collective identity*”, “*filial piety*”, “*group orientation*”, “*work ethic*”, “*adaptability*”, “*belief system*”, “*mental framework*”, “*cultural mindset*”, “*innate thinking patterns*”, “*collective consciousness*” kabilarni kiritish mumkin.

“*This is history as romantic fantasy driven by ancestral reverence. Impressive research notwithstanding, Nelson prefers inventing the memories of others*” (“*The New York Times*”.11.20, 2009).

<https://kun.uz/news/list?f=tag&name=https://adolat.uz/uz/news/sahijlik-yahshilikning-kaliti;>
<https://yuz.uz/news/xalqparvar-va-mehr-saxovat-sohibi>

²⁶ <https://religions.uz/news/detailed/2022/03/11/mentalitet/ajdodlarga> hurmat/1394

“*Collective Identity*” umumiy mental xususiyatlarga ega bo‘lgan guruhga mansublik hissini ifoda etadi. Umuman olganda, “*collective identity*” – bu guruhning o‘ziga xosligini va bir-biriga bog‘liqligini ta’kidlaydigan ijtimoiy va madaniy tushunchadir: “*Human culture as we know it is still defined by the power of collective identity, the people we seek out to call our own*” (“The New York Times”.04.13.2020).

Bosma elektron media olamida mental mavjudlikda ijtimoiy harakatlarni aks ettiruvchi so‘z va so‘z birikmalarida o‘z ifodasini topishi o‘z dalilini topdi.

Uchinchi bob “Medianing aksiologik olamida mentallik kategoriyasi ifodalanishining milliy o‘ziga xosligi” deb nomlanadi. Unda media olamining lisoniy manzarasida mentallik kategoriyasi, mediamatnlarda mentallikning voqelanishida milliy o‘ziga xoslik masalalari yoritilgan.

Dunyoning media manzarasi konsepti dunyoning til tasviri bilan uzviy bog‘liqdir. Tilda u yoki boshqa xalqning qadriyatlari tizimi, uning vakillarining milliy-madaniy spetsifikasi, dunyoqarashi haqida qimmatli ma’lumotlar mavjuddir. Bu narsa tilning leksik-semantik qatlamida yorqinroq namoyon bo‘ladi. Aynan so‘zda u yoki boshqa shu tilda so‘zlashuvchilarning dunyoni idrok qilishi, hayotiy qadriyatlari, tarixiy tajribasi va irsiyatga oid xotirasi aks ettiriladi.

Media olamining lisoniy manzarasi axborotga oid manzarani boshqa nazariy konstruksiyalarga o‘xshab, terminlar va metodologik jihatlarida o‘ziga xos xususiyatlarga egaligini ko‘rsatadi, **birinchidan**, u dunyo haqidagi ilmiy tasavvurlar singari ko‘rib chiqilishi, **ikkinchidan**, u ham ilmiy, ham ilmiy bo‘lmagan bilimlar va madaniy omillar bilan shakllanadi.

O‘zbek xalqida qadimdan *axloq, andisha, vijdon, e’tiqod, halol/harom* kabi so‘zlarning faol qo‘llanilganligi, ular anglatgan tushunchalar milliy ongimizda ustuvor bo‘lganligi, muqaddas tushunchalar sifatida ijtimoiy tabiatga ega ekanligini dalillovchi manbalar mavjud²⁷.

Medianing lisoniy tasvirini sarlavhalar orqali kuzatish mumkin va unda til va jamiyat mentalligi kuzatiladi: masalan, “*Oriyat ehtiyoji*”²⁸; “Axir, “Or-nomus”, “Oriyat” so‘zlari bu shunchaki oddiy so‘zlar yoki tushunchalar emas. Balki har bir insonning vijdoni, g‘ururi, qalbi, yuragi qadar mazmunga ega majburiyatlar ham emasmi?”²⁹; “**Saxovatdan or qilsak, oriyat to‘nini teskari kiysa: milliy qadriyatlarimiz nima bo‘ladi?**”³⁰ va h.k.

O‘zbek mentalligida “*oriyat*” tushunchasi insoniy xususiyat bo‘lib, oriyatli inson o‘zi va oilasi, millati va vatanining izzat-nafsini, qadrini yuksak tutadi.

²⁷ Навоий А. Лисонут тайр. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт матбаа бирлашмаси, 1991. – 465 б.; Рисолайи Азиза («Саботул ожизин» шарҳи). (Тузувчи: Ботирбек Ҳасан. Муҳаррирлар: Рустамов А., Обидов Р.). – Т.: Мерос, 2000. – 265 б.; Темур тузуклари (Алихон Соғуний таржимаси). – Т.: Ғ. Ғулом номидаги нашриёт матбаа бирлашмаси, 1991. – 112 б.; Авлоний Абдулла. Танланган асарлар. 2 жилдлик. 1-жилд. (Нашрга тайёрловчи Б.Қосимов.) – Т.: Маънавият, 1998. – 272 б.; Авлоний Абдулла. Танланган асарлар. 2 жилдлик. 2-жилд. (Нашрга тайёрловчи Б.Қосимов.) – Т.: Маънавият, 1998. – 304 б. ва б.

²⁸ <https://uzhurriyat.uz/2021/05/19/oriyat-ehtiyoji/>

²⁹ https://uza.uz/uz/posts/2021/05/19/urf-odatga-aylangan-qonunlar-qonunga-aylangan-urf-odatlar_385800

³⁰ https://uza.uz/uz/posts/2021/05/19/urf-odatga-aylangan-qonunlar-qonunga-aylangan-urf-odatlar_385800

“Sharqona ta’lim-tarbiyaga xos or-nomus, odob-axloq, sabr-qanoat, bag’rikenglik, ilm-ma’rifatga intilish, o’zidan yaxshi nom qoldirish kabi fazilatlar bugun har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda”³¹.

Mediamatn orqali mentalitetni shakllantirish murakkab va ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, u kishilarning tasavvurlari, e’tiqodlari va qadriyatlariga ta’sir etishni o‘z ichiga oladi. Ma’lumki, jamoatchilik fikri va mentalitetini shakllantirishda asosiy rol o‘ynaydi, chunki ular odamlarning dunyo va undagi voqealarni qanday qabul qilishiga ta’sir qiladi. Mediamatn mentalitetni shakllantirishiga misollar keltiramiz. Ma’lumki, mentalitetning shakllanishida aksiologiya muhim o‘rin tutadi:

Qani, bir davraga borib “Oring bormi sening?!” – deb ko‘ring-chi, shivirlab emas, har tovushini yurakka bog‘lab, joningizdan ovoz berib ayting-chi, davra qalqimasmikan... “Or talashmaysanmi!”, “Nomusga tirishmaysanmi?!” – deganingizni ham aytgan joyingizdagilar oddiy...”³².

Dunyoning lisoniy manzarasi tilda bilvositalanadigan va atrof-muhit borlig‘i haqida u yoki bu etnosning tasavvurlari xususiyatlarini aniqlaydigan dunyoning milliy manzarasi bilan uzviy bog‘liqdir. Dunyoning milliy manzarasida “mentalitet”, “siyosat”, “urf-odatlar”, “din” bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, tafakkurda, xulq-atvor me’yorlarida, his-tuyg‘ularda “joylashgan” holatlarni tushuntiradi:

1-rasm

Quyidagi rasmda uning ko‘rinishi tasvirlangan (qarang. 1-rasm):



Ijtimoiy-siyosiy kontekst jamiyat evolyutsiyasi jarayonida yangi tushunchalar paydo bo‘lishi va oldindan mavjud bo‘lgan ma’nolari oydinlashishiga va kengayishiga sabab bo‘ladi. Ushbu yangi terminologik iboralar va shunga o‘xshash hodisalar shakllanadi.

Mental mavjudlikdagi siyosiy harakatlarni aks ettiruvchi so‘z birikmalari:

“Mehr-5” operatsiyasi: 93 nafar o‘zbekistonlik Suriyadan olib kelindi (sarlavha).

“Mehr-5” operatsiyasi doirasida 93 nafar o‘zbekistonlik — 24 nafar ayol va 69 nafar bolalar Suriyadan Toshkentga olib kelindi.

Jumladan, **“Mehr” insonparvarlik operatsiyasi** doirasida 2019-yilda Suriyadan 156 nafar o‘zbekistonlik, asosan, ayollar va bolalar, 2019-yilning oktyabrida Iroqdan 64 nafar o‘zbekistonlik bola, 2020-yilning dekabrda (**“Mehr-3”**) Suriyadan 25 nafar ayol va 73 nafar bola, 202- yildagi

³¹ <https://ishonch.uz/archives/2022/02/11/sharqona> ta’lim tarbiya/odob-axloq/bag’rikenglik/7976

³² <https://uzhurriyat.uz/2021/05/19/oriyat-ehtiyoji/>

“Mehr-4” operatsiyasida esa 24 nafar fuqaro Afg‘onistondan **O‘zbekistonga qaytarilgan edi**”³³.

Ma’lumki, “**MEHR**” tushunchasi tojikcha ot o‘zbek tilida asli “yuragiga yaqin tutish tuyg‘usi”, “suyib munosabatda bo‘lish tuygusi” kabi ma’noni anglatadi³⁴. Mehr tushunchasi shafqat leksikasi bilan *mehr-shavqat*, *mehr-muruvvat* murakkab qo‘shma so‘zlarini hosil qiladi.

Gazeta matnida ushbu tushunchaning voqealanishiga quyidagilar misol bo‘la oladi: “**Mehr tushunchasi**”(yuz.uz.28.02.2021); “**Ezgulik, saxovat, mehr, shavqat ramzi**” va h.k.

Ta’kidlash lozimki, medianing lisoniy olami orqali jamiyatda me’yoriy xulq-atvor shakllanadi. Mentallik xususiyatidan kelib chiqib, ijobiy xislatlar singdiriladi yoki aksincha salbiy xislatlar qoralanadi va albatta, bu til vositalari orqali amalga oshiriladi. Masalan, “**Jamiyatda “uyat” fenomenining transformatsiyasi xususida**”³⁵ nomli sarlavha ostida e’lon qilingan maqolaga e’tibor qaratamiz:

“Keyingi paytda jamiyatimiz **“uyat”** so‘zini tez-tez ishlatayotganligi hech kimga sir emas. Bu, shubhasiz, so‘z erkinligi va liberal fikrlashga yo‘l ochilgani, oshkoralik tamoyillariga amal qilinayotgani mahsuli. **Jamiyatimizda bolalikdan boshlab uyat haqida gapiriladi**. Bu tushuncha, ayniqsa, qiz bolalarga juda ko‘p uqtirilib, ularning ongida **“uyat bo‘ladi”** deb nomlangan maxsus programma shakllantiriladi”.

Shuningdek, ijtimoiy-siyosiy mavzulardagi materiallarda o‘zbek mentalligini namoyon qiluvchi vijdon, oriyat, nomus, g‘urur, insoniylik, adolat kabi tushunchalarning voqelanishi va ularda mentallikning aks etishi kuzatildi: Aytish joizki, ona tilimizda uyat so‘zining boshqa tillardan farqli o‘laroq, bir qancha sinonimlari mavjud: **or, nomus, andisha, ibo, sharm, hayo, iffat, sha’n, oriyat, istihola**. Har birida o‘ziga xos ma’no-mazmun mujassam”; “Jamiyatimizda, shuningdek, **urf bo‘lgan qator marosimlarga** nisbatan ham **uyat** so‘zi qo‘llangan”³⁶ va h.k.

Ingliz tilida (Amerika) siyosiy matnlarda mental so‘zlarning qo‘llanilishi kuzatildi. Ularga: *Equality*, *Freedom and Liberty*, *Democracy*, *Equality and Justice*, *Human Rights*, *Sustainability*, *Environmental Responsibility*, *Innovation and Progress*, *Liberty and Individualism*, *Civil Rights*. Masalan,

“*Equality*” - Amerika qadriyatlarida asosiy o‘rin tutuvchi tenglik, fuqarolarning jins, irq, etnik kelib chiqishi yoki ijtimoiy maqomidan qat’i nazar, bir xil huquq va imkoniyatlarga ega bo‘lishi kerakligini ta’kidlaydi. Tenglik, konstitutsiyaviy huquqlar, ish haqi tengligi va ta’lim imkoniyatlarida namoyon bo‘ladi. Ingliz lug‘atlarida quyidagicha izoh beriladi “*the state of being equal, especially in status, rights, or opportunities*”³⁷. “*Unions are a force for greater*

³³ <https://www.gazeta.uz/uz/2021/04/30/mehr/>

³⁴ [mehr - Vikilug‘at \(wiktionary.org\)](https://www.vikilug.at/wiki/mehr)

³⁵ <https://www.uzanalytics.com/jamiyat/2021/04/15/mentallik/uyat/8697/>

³⁶ <https://www.uzanalytics.com/jamiyat/2021/04/15/or/nomus/ibo/8697/>

³⁷ <https://www.oed.com/search/dictionary/?scope/2023/10/30/Entries&q=equality>

wage **equality**; they also help enforce the “**outrage constraint**” that used to limit executive compensation” (“The New York Times” nytimes.com. 30.10.2023).

Mentallikni shakllantiradigan asosiy mezonlardan biri bu urf-odatdir. Qomusiy lug‘atda “Urf-odat – an‘analari sifatida umumxalq tomonidan qabul qilingan tartib-qoida; rasm-rusum, tamoyil”³⁸ sifatida talqin qilinadi. O‘zbek milliy mentalitetiga xos jihatlardan yana biri jamiyat hayoti, insonlar turmush tarzining ko‘proq an‘ana, urf-odatlar orqali boshqarilishidir va bunda medianing alohida roli bor. Ularni quyidagi ko‘rinishda berilganini kuzatishimiz mumkin: Sarlavhalarda: “**Urf-odatga aylangan qonunlar, qonunga aylangan urf-odatlar...**”³⁹.

“Uza.uzning 2021-yil 5-avgust sonida “Xorij nashrida milliy urf-odat va an‘analarimiz, milliy liboslarimiz haqida” nomli maqola xorijiy nashrlarda o‘zbek urf-odatlari, an‘analari va milliy liboslarini yorituvchi maqola tahlili berilgan. Ushbu maqolada o‘zbek mentalitetini aks ettiruvchi ma‘lumotlar bayon qilingan:

“O‘zbekistonda milliy bosh kiyim – bu **o‘zbek do‘ppisi** hisoblanadi. Maxsus bayram tantanalari uchun yorqin va rang-barang kashta va naqshlarga, oltin kashtalar bilan bezatilgan **nafis do‘ppilar** tikiladi”, deb yozadi “ECO Heritage” muallifi”... “Bayram tantanalarida o‘zbek ayollari kiyadigan liboslar ham **atlas** matosidan tayyorlanadi va ularda turli kashtalardan foydalaniladi. “O‘zbek ayollari uch xil – **do‘ppi, ro‘mol** va **sallaga** o‘xshagan bosh kiyimlardan foydalanadi. Xotin-qizlarning an‘anaviy bayram kiyimlarining ajralmas qismi oltin va kumushdan yasalgan **sirg‘alar, bilakuzuklar, marjon** kabi zargarlik buyumlari hisoblanadi”, - deyiladi materialda”.

Ta’kidlash lozimki, xalqimizning asrlar davomida yaratgan milliy urf-odatlarini auditoriya ongiga singdirish bugungi kunning asosiy vazifalaridan biri bo‘lib, OAVlariga an‘analarimiz, urf-odatlarimizni keng targ‘ib qilish yoki aksincha qoralash imkoniyati berilgan: “**Dafn marosimlarida esa yetti, yigirma, qirq, yil oshi, payshanbalik, yakshanbalik, qoryog‘di, mavlud** kabi marosimlar, **Ramazon va Qurbon hayiti** munosabati bilan **uch kun eshik ochib o‘tirish** kabi tadbirlar **uyat** hisoblanadi”⁴⁰.

Ma’lumki, har qanday millat va xalq, har qanday ijtimoiy tuzum va davlat muayyan bir tamoyillar va qadriyatlar asosida hayot kechiradi hamda o‘z manfaatlarini, maqsad-muddaolarni, orzu-intilishlarini ko‘zlab harakat qiladi va birinchi navbatda urf-odatlar, an‘analarni qadrlash va uni ommaga ongiga singdirishga qaratiladi. “Yurtimizda tarixan shakllangan **an‘ana, urf-odat va qadriyatlarni hisobga olgan holda, Qonunda hamkorlarimiz – Yevropa Kengashining Venetsiya komissiyasi ... ekspertlari tomonidan berilgan tavsiyalar o‘z aksini topdi**”⁴¹.

³⁸ Фалсафа қомусий луғат. – Т., «Шарқ», 2004. 416-б.

³⁹ https://uza.uz/uz/posts/2021/05/19/urf-odatga-aylangan-qonunlar-qonunga-aylangan-urf-odatlar_385800

⁴⁰ <https://www.uzanalytics.com/2021/04/15/jamiyat/8697/>

⁴¹ https://uza.uz/uz/posts/2021/05/19/urf-odatga-aylangan-qonunlar-qonunga-aylangan-urf-odatlar_385800

Ingliz tilida (Amerika) urf-odatlarini aks ettiradigan mental tushunchalarga quyidagilarni misol qilish mumkin va ushbu leksemalar milliy leksemalar qatoridan joy olgan: “Thanksgiving”, “Melting Pot”, “Baseball”, “Fourth of July”, “Road Trip”, “Hollywood”, “Entrepreneurship”, “Fast Food”, “Barbecue (BBQ)”, “Prom”.

“Hollywood” tushunchasi: *“The American film industry, its characteristics and background; (also) a film produced in Hollywood”*⁴² va o‘zbek tiliga quyidagicha tarjima qilinadi “Amerika kino sanoati, uning xususiyatlari va kelib chiqishi; (shuningdek) Gollivudda ishlab chiqarilgan film”. *“Few people get a chance to live their dreams. Tony Bellew has not only managed to see his turned into a **Hollywood** movie, but this summer he hopes to ...”* (“The Times” thetimes.co.uk/ 11.01.2016). “Prom” so‘zi – O‘rta maktabni bitirish oldidan o‘tkaziladigan «prom» kechasi, o‘smirlar hayotidagi muhim voqea sifatida, Amerika madaniyatida yoshlarning o‘shini va ijtimoiy hayotdagi muhim o‘tish marosimlarini ifodalaydi: *“A few days earlier, when Nathalie told her father that the **prom** was coming up, he had a few words of warning: “He said, ‘Moises better not smell your perfume”* (“The New York Times” nytimes.com/ 11.06.2019).

Din va mentalitet ikkisi uchun ham birdek taalluqli bo‘lgan umumiy tarixiy qadriyatlarga tayanadi. Din ijtimoiy ong shakli shakli sifatida jamiyatda o‘zining xususiyatiga ko‘ra regulativ, kommunikativ, aksiologik funksiyalarni amalga oshiradi. Darhaqiqat, tilning dinamik jarayonlarini hisobga olgan holda matnlarni, ularning paydo bo‘lish holatlari, ularning uslubiy xususiyatlari, turlaridan qat’iy nazar kontekstni hisobga olish zarurati mavjud. Masalan, *“Xayrli amallar esga olinib, oila a’zolariga taskin-tasalli berildi”*⁴³; *“Ularning uqtirishicha, agar siz bu yerda **o‘zbekona tarbiyaga** jiddiy e’tibor qaratmasangiz, farzandingizni “yo‘qotib” qo‘yishingiz ehtimoldan xoli emas”*⁴⁴ va h.k. Mentallikka ishora qiluvchi diniy leksikaning sarlavhalarda voqelanishi: *“Diniy bag‘rikenglik – tinchlik totuvlik, taraqqiyot kafolati”*; *“Din – nasihatdir!”*; *“Islomda harom va halol”*; *“Milliy-diniy qadriyatlarimizning kushandasi: bid’at-xurofotlar”* (xs.uz/uzkr.31.12. 2020) va h.k.

Ingliz tilida (Amerika) diniy matnlarda mental so‘zlarning qo‘llanilishi: *“Religious Freedom and Pluralism”, “Individualism and Personal Responsibility”, “Charity and Community Service”, “Religion and National Identity”, “Religion and Cultural Diversity”, “Faith”, “Stewardship”, “Community”, “Redemption”* ko‘rib chiqildi. Amerika gazetalarida, shuningdek, diniy leksikalarning Qo‘shma Shtatlarda mavjud bo‘lgan diniy an‘analari va e’tiqodlarning xilma-xilligini aks ettirishida ko‘rishimiz mumkin: *“Rabbi”* – leksemasi: *“Local **Rabbi** Advocates for Interfaith Dialogue at Community Forum”*; *“Prominent Rabbi Authors New Book on Jewish Ethics”*; *“Hajj”* – leksemasi: *“Thousands of Pilgrims Embark on Hajj Amidst Increased Health and Safety Measures”*; *“Government Announces Subsidies for Citizens*

⁴² <https://www.oed.com/search/dictionary/?scope/2019/03/07/Entries&q=Hollywood>

⁴³ <https://www.xs.uz/uzk.r.12/mentallik/milliy-diniy-qadriyatlar/31.12.2020>.

⁴⁴ <https://www.xs.uz/uzk.r.31.12/mentallik/milliy-diniy-qadriyatlar/31.12.2020>.

Performing Hajj”; “*Environmental Concerns Prompt Initiatives to Make Hajj More Sustainable*”⁴⁵. Ushbu misollardan ko‘rishimiz mumkinki, ingliz gazetalarida diniy mavuzdagi maqolalarda turli dinga mansub muammolarni turli voqealanish kontekstlarini, jumladan, diniy voqealar, dinlararo hamkorlik va ijtimoiy-axloqiy masalalarni yoritadi: Shu bilan birga diniy bag‘rikenglikni targ‘ib qilish harakatlari: “***Rabbi and Imam Join Forces for Peace Initiative***” (washingtonpost.com.04.15.2021).

Jamiyat mentalligining tadqiqi va uning ingliz va o‘zbek elektron matbuotida aks etishi ko‘p qirrali tadqiqot sifatida qaralib, u sotsiolingvistika, pragmalolingvistika hamda lingvomadaniyatshunoslik sohalarini qamrab oladi. Har ikkala mamlakat matbuot jamiyatiga xos bo‘lgan madaniy qadriyatlar, e‘tiqod va fikrlash tarzini shakllantirish, aks ettirishda asosiy rol o‘ynaydi. Zero, gazeta tili nafaqat axborot uzatish vositasi, balki madaniy munosabatlar va ijtimoiy me‘yorlarning ko‘zgusidir. Mediamatnda mental va leksik birliklarning tanlovi axborotda milliy-madaniy kodlar va mental munosabatlarning ko‘rsatkichlari bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

XULOSALAR

1. Axboriy makonda tilning nafaqat ma‘lumot yetkazish vositasi, balki media diskursda ijtimoiy va madaniy hodisalar, global voqealar, turli mafkuralar, ularning baholash mezonlari va qarashlarini o‘zgartirishga muhim vazifani bajaradi. Mediamatnlarda qo‘llaniladigan mental til birliklari (leksik, sintaktik, metafora, frazeologiya, paremiualar va h.k) yangi mantiqiy strukturalarni shakllantiradi. Leksik birliklarda mentalitetni aks etishi nuqtayi nazaridan media tilini o‘rganishga o‘zbek milliy mentalitetini tadqiq qilish, uning nechog‘lik umuminsoniy qadriyatlarga mosligini kuzatish imkonini beradi.

2. Elektron gazetalar orqali yoritilayotgan axborotda mentallikni aks etishi OAV janr xususiyatlari va xabar maqsadlariga ko‘ra tasniflanadi. Ekspressiv vositalar mentallikni namoyon qiluvchi hamda media janr tilining media muhitdagi ta’siri natijasida shakllanadigan lingvistik obrazlar, tasvirlar, tushunchalar va g‘oyalarni o‘z ichiga olgan kognitiv tuzilmalar bo‘lib, ular media-kontentni yaratish, talqin qilish va idrok etish jarayoniga ta’sir qiladi.

3. Media olamning lisoniy manzarasi, axborot realligi haqida olingan bilimlar dunyoning maxsus ilmiy manzarasi va barcha bilimlar aksiologik bilimlar sifatida tasniflanadi. OAVda til mentalligi media olamining axboriy makonida ma‘lumotlarni idrok etish, qayta ishlash va uzatishga auditoriya ongiga ta’sir qiluvchi murakkab kognitiv tuzilmalarni nazarda tutishi mumkinki, bu konsepsiya tilning mental modellarning shakllanishiga ta’sirini qamrab oladi, bu esa o‘z navbatida muallif va o‘quvchi tomonidan bizni o‘rab turgan dunyoga turli qarashlar, qadriyatlar, stereotiplarni belgilaydi.

⁴⁵<https://www.thetimes.co.uk>; <https://www.washingtonpost.com>; <https://www.theguardian.com/international>. 04.15.2021. BA X.K.

4. Mentalitet – muayyan madaniy muhitda insonlarning o‘ziga xos fikirlash tarsi va muayyan madaniy muhitda insonlarning o‘ziga xos fikrlash tarzi va xulq-atvorini shakllantiruvchi dunyoqarashlar, tasavvurlar, qadriyatlar hamda yo‘naltiruvchi me‘yorlar majmuasidir. Ayniqsa, so‘z orqali muallifning olamni qanday idrok etishi ochiq namoyon bo‘ladi. Til esa etnik madaniyatning ham vositasi, ham vositachisi bo‘lib, ushbu madaniyatning eng muhim ifodalaridan biri sanaladi. U ijtimoiy-siyosiy, diniy omillar bilan bog‘liq bo‘lib, urf-odatlar, an‘analalar va h.k.da o‘z ifodasini topadi.

5. Mediamatn yaratishda til birliklarini tanlash, ma‘no yaratish, assotsiatsiyalarni shakllantirish va auditoriyaga ta‘sir etishda tilning ekspressivlik funksiyasi ijtimoiy-siyosiy matnlarida milliy tarix, madaniyat va an‘analarga kuzatildi. O‘zbek mentalligida *oila qadriyatlari*, yoshlarga *izzat*, keksalar hamda ota-onalarga *hurmat* va jamiyatda *milliy birlik*, *tolerantlik* kabi tushunchalarni singdirishda muhim omildir. Bunday tushunchalar auditoriyani dolzarb voqealardan xabardor qilish bilan birga, milliy o‘zlikni anglashda muxim vosita sifatida qaraladi.

6. Mentallik an‘anaviy ong va etnik xususiyatlarga asoslangan dunyo tasvirlari bilan bog‘liq dunyoqarashlar tizimi sifatida qaraladi. Mentalitet ijtimoiylashuv jarayonida avloddan-avlodga o‘tib, muayyan sharoitlarda odob-axloq qoidalari, ustuvor qadriyatlar, xulq-atvor me‘yorlari va modellari haqidagi tasavvurlarni shakllantiradi va mustahkamlaydi. Til va diniy tafakkur kategoriyasi mentalitet kategoriyasi bilan bog‘liqdir.

7. O‘zbek tilida mental birliklar semantik mazmun va emotsional tus orqali namoyon bo‘lib, ular milliy qadriyatlar, ijtimoiy me‘yorlar va axloqiy qarashlarni o‘z ichiga oladi. Bunday til birliklari inson ongida ma‘lum bir kognitiv modellarni shakllantirib, jamiyatda o‘zaro munosabatlar va axloqiy me‘yorlarni belgilaydi. Demak, o‘zbek elektron gazeta matnlarida mental birliklar faqat axborot uzatish vositasi emas, balki milliy va madaniy o‘zlikni ifoda etuvchi muhim kognitiv instrument hisoblanadi.

8. O‘zbek tilidagi mentallikni aks ettiruvchi birliklar, boshqa tillardagi kabi, muayyan semantik va emotsional tusga ega. Masalan, o‘zbek milliy dunyoqarashida *insof*, *iymon*, *oqibat*, *mehr* va *diyonat* kabi so‘zlar vijdon va halollik hissini ifodalash uchun qo‘llaniladi. Ushbu tushunchalar hayotning ma‘naviy hamda hissiy qirralari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, o‘zbek elektron gazetalarda voqealanishi salmoqli ekanligini ko‘rish mumkin.

9. Ingliz mediamakonida mentallikni namoyon bo‘lishi ko‘p qirrali va ko‘p madaniyatli jamiyat tarixi, individualizm, pragmatizm, ozodlik va innovatsiyalarga intilish kabi qadriyatlarga asoslanadi. Bu xususiyatlar til vositalari orqali mediamatnlarda o‘z aksini topadi. Mediamatnlarda mentallikni ifoda etuvchi til vositalariga metaforalar, ritorika usullar, undalmalar, idiomalar, taniqli shaxslardan iqtiboslar kabilarni keltirish mumkin. Shuning bilan birga “*diversity*”, “*inclusion*”, “*melting pot*” (madaniyatlar qorishmasi) kabi tushunchalarni mediamatnlarda ko‘p qo‘llanishi gender-neytral til (masalan,

“they” birlik shaxs uchun) va madaniy sezgirlikka e’tibor berish tendensiyasini yoritilishi kuzatildi.

10. Amerika mentalligi ozodlik va demokratiya qadriyatlari bilan chambarchas bog’liq. Til vositalarida bu “freedom”, “liberty”, “equality” kabi leksik birliklarda, shuningdek, “land of opportunity” (imkoniyatlar mamlakati) kabi metaforalarda ifodalanishi, Amerika mentalligida individualizm “Amerika orzusi” (American Dream) konsepsiyasida namoyon bo’ladi. Til vositalarida bu ko’pincha “self-made person” (o’zini o’zi yaratgan inson), “pursuit of happiness” (baxtga intilish) kabi iboralarda, ozodlik va demokratiya qadriyatlari bilan chambarchas bog’liqligini “freedom”, “liberty”, “equality” kabi leksik birliklarda, shuningdek, “land of opportunity” (imkoniyatlar mamlakati) kabi metaforalarda ifodalanishi kuzatildi.

11. Elektron gazetalar matnida siyosat, din va urf-odatlar bilan bog’liq mental birliklar ma’lum bir ijtimoiy g’oyalarni mustahkamlash, jamoatchilik fikrini shakllantirish va milliy o’zlikni targ’ib qilish uchun faol qo’llaniladi. Elektron gazetalarda mentallikni ifodalovchi diniy leksika auditoriyaning ma’naviy - axloqiy qadriyatlarini shakllantirish va mustahkamlashda muhim o’rin tutadi. Shuningdek, milliy madaniyat va urf-odatlarni saqlab qolish, avloddan-avlodga uzatishda muhim platforma vazifasini bajaradi.

**ONE TIME SCIENTIFIC COUNCIL UNDER THE SCIENTIFIC COUNCIL
DSc.03/30.12.2019.FIL.27.01 ON AWARDING SCIENTIFIC DEGREES
AT UZBEKISTAN STATE WORLD LANGUAGES UNIVERSITY**

TERMEZ STATE UNIVERSITY

MAMARAIMOVA UGILOY TAJIMURADOVNA

**MENTALITY IN THE LINGUISTIC FORM OF MEDIA: AN
AXIOLOGICAL RESEARCH**

(IN THE EXAMPLE OF ELECTRONIC NEWSPAPERS)

10.00.11 - Theory of Language. Applied and Computational Linguistics

**DISSERTATION ABSTRACT OF THE DOCTOR OF PHILOSOPHY (PhD)
ON PHILOLOGICAL SCIENCES**

Tashkent – 2025

The topic of the dissertation of Doctor of Philosophy (PhD) has been registered with Higher Attestation Commission under the Ministry of Higher Education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan under number № V2022.4. PhD/Fil3036.

The dissertation has been carried out at Termiz state university.

The abstract of the dissertation is posted in three languages (Uzbek, English, Russian (abstract)) on the website of Scientific Council (www.uzswlu.uz) and on the website «Ziyonet» informational and educational portal (www.ziyonet.uz).

Scientific advisor:

Teshabayeva Dilfuza Muminovna
Doctor of Philological Sciences, professor

Official opponents:

Rakhimov Ganisher Khudoykulovich
Doctor of Philological Sciences, professor

Nasrullayeva Nafisa Zafarovna
Doctor of Philological Sciences,
professor

Leading organization:

Karshi State University

The defence of the dissertation will take place on “___” _____ 2025 at _____ pm at the meeting of the One-time Scientific Council under the Scientific Council No DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 under Uzbekistan State World Languages University (Address: 100138, Tashkent city, Uchtepa district, Kichik halqa yoli street, 21a. Tel.: (99871) 230-12-91, fax: (99871) 230-12-92, e-mail: uzswlu_info@mail.ru).

The dissertation can be reviewed at the Information Resource Centre of Uzbekistan State World Languages University (registered under the number _____) (Address: 100138, Tashkent city, Uchtepa district, Kichik halqa yoli street, 21a. Tel.: (99871) 230-12-91, fax: (99871) 230-12-92, e-mail: uzswlu_info@mail.ru).

Abstract of dissertation was sent out on «___» _____ 2025.

(mailing report № _____ «___» _____ 2025).

I.M.Tukhtasinov

Chairman of the one -time Scientific Council on Awarding Scientific Degrees, Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kh.B.Samigova

Secretary of the one -time Scientific Council on Awarding Scientific Degrees, Doctor of Philological Sciences, Professor

J.A.Yakubov

Chairman of the one-time Scientific Seminar under the one-time Scientific Council on Awarding Scientific Degrees, Doctor of Philological Sciences, Professor

INTRODUCTION (Doctor of Philosophy (PhD) dissertation abstract)

Relevance and necessity of the dissertation topic. In world linguistics, the study of verbal expression of information in the media space and the limitless possibilities of language in covering global events is becoming increasingly relevant and important for numerous reasons. This is determined by the fact that the dissemination of all types of information across various media platforms is evaluated as a communicative process. Mass media play a crucial role in the process of transmitting and receiving information in society. Notably, modern electronic newspaper texts serve not only as a means of conveying information but also as an important cognitive-cultural field that shapes language, ideology, and public consciousness. Therefore, examining the category of mentality in electronic newspaper texts is of paramount importance from the perspective of linguistics and cognitive sciences. In particular, it necessitates the investigation of the mental characteristics of electronic newspaper texts based on values.

The processes of globalization and digitalization unfolding in the world media landscape have created extensive opportunities for searching, obtaining, and disseminating information based on modern technologies. The language of electronic newspapers, which is one of the contemporary forms of mass media, is becoming an object of linguistic analysis. Currently, research on various aspects of electronic newspaper text is being conducted in scientific schools across Great Britain, the USA, Germany, Spain, Russia, Kazakhstan, Belarus, and other foreign countries. Electronic newspapers are a special type of media text that differs from traditional print publications in several parameters, such as interactivity, multimedia capabilities, hypertextuality, and dynamism. Studying the language of electronic newspapers allows us to determine the specifics of their functioning, structure, style, and genres. The role of mentality in shaping the language of electronic newspapers is viewed as a reflection of society's cultural and social values. Particularly, in today's information-saturated world, the language of mass media serves to shape a healthy and democratic social environment based on mentality. Issues such as the mental nature of language and its reflection in national consciousness have become one of the urgent research directions in modern Uzbek linguistics. Specifically, studying the unique aspects of the mentality category in the formation of electronic newspaper texts proves to be one of the pressing and essential problems in this field.

In the realm of Uzbek linguistics, particularly within media linguistics, numerous studies are being conducted to clearly elucidate the nature of media texts. Special attention is being paid to analyzing the linguistic features of mental language units in the Uzbek media landscape. Researchers are focusing on examining the mental characteristics of media texts and investigating methods for swiftly presenting socio-political events to various audience segments through electronic newspapers, drawing upon advanced international experiences. Notably, "The comprehensive support provided to representatives

of science and enlightenment, and the increasing value placed on intellectual wealth, are directly linked to the history, character, mentality, centuries-old values, and aspirations of our people”¹. Indeed, in the media world, our nation's common beliefs, values, cultural characteristics, and the mentality of both the nation and its people play a crucial role in shaping media content. These factors determine how the system of values is perceived through information. Notably, the scope for studying the mental characteristics of the Uzbek language in comparison with other languages, particularly English, is expanding.

As a result of targeted reforms in various spheres of Uzbek society, actions have emerged related to the application of new paradigms that study mentality and our national language. The Decrees of the President of the Republic of Uzbekistan: №UP-5850 dated October 21, 2019 “On Measures to Radically Enhance the Role and Status of the Uzbek Language as the State Language”, №UP-6084 dated October 20, 2020 “On Measures for the Further Development of the Uzbek Language and Improvement of Language Policy in the Country”, №UP-6097 dated October 29, 2020 “On Approving the Concept of Science Development until 2030”, Resolutions of the Cabinet of Ministers: №610 dated August 11, 2017, “On Measures to Further Improve the Quality of Foreign Language Teaching in Educational Institutions”, №139 dated March 11, 2020, “On Measures to Further Increase the Effectiveness of Fundamental and Applied Research in Uzbek Language and Literature”, Decrees of the President of the Republic of Uzbekistan: №UP-4947 dated February 7, 2017 “On the Action Strategy for the Further Development of the Republic of Uzbekistan for 2017-2021”², №UP-5653 dated February 2, 2019 “On Additional Measures for the Further Development of the Information Sphere and Mass Communications”³, Resolution №PP-2909 dated April 20, 2017 “On Measures for the Further Development of the Higher Education System”⁴, as well as other regulatory legal documents related to this field, this dissertation research serves, to a certain extent, in implementing the tasks specified in these documents.

The alignment of the research with the priority directions for the development of science and technology in the republic. The research was conducted within the framework of the republic's priority direction for the development of science and technology I: “Social, legal, economic, cultural, spiritual and educational advancement of the information society and democratic state, and development of an innovative economy”.

¹ Президент Шавкат Мирзиёев Ўзбекистон Республикаси мустақиллигининг йигирма тўққиз йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи. <http://insonhuquqlari.uz/uz/news/ozbekiston-yangi-renessans-markaziga-aylanmoqda>.

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг «2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги ПФ-4947-сон Фармони. www.uza.uz. 08.02.2017.

³ Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ахборот соҳаси ва оммавий коммуникацияларни янада ривожлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги ПФ-5653-сон Фармони. www.uza.uz. 02.02.2019.

⁴ Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-2909-сон Қарори. www.uza.uz. 20.04.2017.

Degree of scientific development of the research problem. In the field of linguistics in our country, numerous scientific studies have been dedicated to the research of media language. These include scholarly investigations conducted by A.Abdusaidov, D.M.Teshabayeva, S.D.Sa'dullayev, I.Y. Toshaliyev, M. Israil, S. Shomaqsudova, Y. Odilov, A.Kh. Mirzajonov, M. Artikova, Sh. Djabbarova, S. Atkamova, Sh.B. Jabbarova, N. Yakhyayeva⁵ and others.

In world linguistics, a number of significant studies have been conducted on media language. These include substantial contributions by X. Hamilton, R.Fowler, N.Fairclough, D.Matheson, M.Montgomery, D.Schiffrin, D.Tannen, T.G.Dobrosklonskaya, D.N.Shmelev, S.I.Bernstein, V.G.Kostomarov, A.N.Vasileva, Y.V.Rozhdestvensky, G.Y.Solganik, S.I. Treskova, I.P. Lisakova, and B.V. Krivenko⁶.

The works of scholars such as R.A. Vafeyev, V.S. Daxil, Y.V. Kakorina, M.G.Shilina, G.A.Maxinin, T.N.Kolokolseva, O.V.Lutovinova, Y.V. Prasolova, D.M. Teshabayeva, and M. Nuritdinova⁷ on the language of

